

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

# FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» «Scientific journal of the Fergana State University» jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

## Tahrir hay'ati

### Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

## Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)  
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)  
ORIPOV A. (O'zbekiston)

**Muharrir:**

Sheraliyeva J.

## Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

## Aniq va tabiiy fanlar

## MATEMATIKA

**A.Urinov, D.Usmonov**

Соҳа чегарасида бузиладиган параболик тенглама учун чегаравий масалалар ..... 6

**Z.Yusupova**

Imkoniyati cheklangan bolalar matabining matematika darslarida o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatoliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ..... 19

**FIZIKA - TEKNIKA****M.Mirxolisolov, X.Yunusov, A.Sarimsoqov**

Natriy-karboksimetilsellyuloza eritmasida barqaror rux oksidi nanozarralari sintezi va xossalari ..... 24

**BIOLOGIY, TUPROQSHUNOSLIK****I.Zokirov, Sh.Yusupova, A.Yoqubov**

Markaziy Farg'ona sabzavot-poliz agrotsenozlari entomofaglarining ekologik-faunistik tahlili..... 32

**F.Xolboev, F.Shodiyeva, Z.Mirxonova**

O'zbekistonda kurkunaklar (Merops) avlodining oziqa tarkibi va oshqozon massasining o'zgaruvchanligi..... 38

**G.Zokirova, Sh.Kamolov**

Farg'ona vodisi sharoitida oltinko'z (Chrysopidae: Chrysoperla) entomofagining biologik xususiyatlari ..... 43

**F.Umurqulova, M.Ismoilova, B.Zokirov, Sh.Hasanov, J.Abduraxmanov**

Chimqo'rg'on va pachkamar suv omborlarining mikroflorasini tadqiq qilish..... 47

**QISHLOQ HO'JALIGI****G.Yuldashev, M.Isag'aliyev, A.Raximov, Z.Azimov**

Sho'rlangan tuproqlar pedogeokimyosi va tadqiqot usullari ..... 50

**M.Raximov, X.Muydinov**

Xorijdan keltirilgan qoramollar buqachalari ratsioniga mineral qo'shimchalar kiritilishi samaradorligi ..... 56

**KIMYO****A.Maxsumov, A.Shodiyev, U.Azamatov, Y.Xolboev**

Bis-[(2,4,6-tribrom-fenoksi)-karbamat] hosilasini sintezi va uning xossalari ..... 60

**X.Saminov, A.Ibragimov, O.Nazarov**

Púnica granátum o'simligi "qayum" navining kimyoviy elementlar tarkibini aniqlash ..... 65

**I.Asqarov, M.Khamdamova, Y.Xolboev**

Makkajo'xori kepagi asosida tayyorlanadigan bioparchalanuvchan idishlar kimyoviy tarkibi ..... 70

**I.Asqarov, N.Razzakov**

Zirk mevasi tarkibidagi tabiiy birikmalarining immunostimulyatorlik xossalari ..... 75

**X.Abdikunduzov, A.Ibragimov, O.Nazarov, I.Jalolov, E.Akbarov**

Uzum (Vitis vinifera)o'simligi pinot noir navining bargi tarkibidagi flavonoidlarni sifat va miqdor tarkibini aniqlash ..... 78

**I.Askarov, M.Muminjanov, N.Atakulova**

Tavuz mevasining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari ..... 82

**I.Asqarov, O.Abdulloev**O'zbekistonda o'sadigan bir yillik shuvoq o'simligidan(*Artemisia annua L.*) artemizininni ajratib olishning takomillashtirilgan usuli ..... 86**M.Bokiiev, I.Asqarov**

Yerqalampirning kimyoviy tarkibi va undan ayrim xastaliklarni davolashda foydalanish ..... 90

## Ijtimoiy-gumanitar fanlar

## IQTISODIYOT

**G. Xalmatjanova, A.G'ofov**

O'zbekistonda yer resurslaridan foydalanish usullari va samaradorligi ..... 96

**FALSAFA, SIYOSAT****B.Xolmatova**

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish masalalarining innovatsion yechimlari ..... 101

**S.Abdunazarov**

Ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarni amaliyatga joriy etishda kompleks yondashuvning ahamiyati ..... 106

**NATRIY-KARBOKSIMETILSELLYULOZA ERITMASIDA BARQARORRUX OKSIDI  
NANOZARRALARINI SINTEZI VA XOSSALARI**

**СИНТЕЗ И СВОЙСТВА СТАБИЛЬНЫХ НАНОЧАСТИЦ ОКСИДА ЦИНКА В РАСТВОРАХ  
НАТРИЙ-КАРБОКСИМЕТИЛЦЕЛЛЮЗЕ**

**<sup>1</sup>Mirxolisov Mirafzal Muzaffar o'g'li, <sup>2</sup>Yunusov Xaydar Ergashovich,  
<sup>3</sup>Sarimsoqov Abdushkur Abduxalilovich**

**<sup>1</sup>Mirxolisov Mirafzal Muzaffar o'g'li**

— O'zR FA PKFI, kichik ilmiy xodim.

**<sup>2</sup>Yunusov Xaydar Ergashovich**

— O'zR FA PKFI, texnika fanlari doktori,  
yetakchi ilmiy xodim.

**<sup>3</sup>Sarimsoqov Abdushkur Abduxalilovich**

— O'zR FA PK.FI, texnika fanlari doktori,  
professor.

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada almashinish darajasi (AD) 0.80-0.85 va polimerlanish darajasi (PD) 950-1050 bo'lgan tozalangan natriy-karboksimetilsellyuloza (NaKMS) va rux nitrat ( $Zn(NO_3)_2$ ) eritmalaridan kimyoviy usul yordamida,  $80^{\circ}C$  haroratda, tarkibida turli o'lchamli, rux oksidi nanozarralari ( $ZnONZ$ ) tutgan polimermetallokomplekslarsintez qilish sharoitlari aniqlangan. Tarkibida turli o'lcham va shaklli barqaror  $ZnONZ$  tutgan Na-KMS namunalarining fizik-kimyoviy xossalari IK-Fure spektroskopiya, atom kuch mikroskopiya (AKM), rentgen difraktometrik analiz (XRD) usullari orqali aniqlandi.

**Аннотация**

В данной статье из растворов очищенной натрий-карбоксиметилцеллюлозы (NaKMC) со степенью замещение С3=0,80-0,85 и степенью полимеризации СП=950-1050 и нитрата цинка ( $Zn(NO_3)_2$ ) химическими методами при  $80^{\circ}C$  температура, определены условия синтеза полимерметаллокомплексов, содержащих различных размеров наночастицы оксида цинка ( $ZnONZ$ ). Физико-химические свойства образцов Na-KMC, содержащих стабилизированных наночастицы оксида цинка различных размеров и форм, определены методами ИК-спектроскопии, атомно-силовой микроскопии, рентгено дифрактометрический анализа.

**Abstract**

In this article the conditions for synthesis of polymermetallocomplexes contained different size of zinc oxide nanoparticles based on purified sodium-carboxymethylcellulose (Na-CMC) with degree of substitution DS=0,80-0,85 and degree of polymerization DP=950-1050 and zinc nitrate ( $Zn(NO_3)_2$ ) solutions by chemical method at a temperature of  $80^{\circ}C$  were determined. Physicochemical properties of Na-CMC samples containing stable zinc oxide nanoparticles of various sizes and shapes were determined by IR-Fure spectroscopy, atomic force microscopy, X-ray diffractometric analysis.

**Kalit so`zlar:** gidrogel, natriy-karboksimetilsellyuloza, nanozarralar, almashinish darajasi, polimerlanish darajasi, rux oksid, kimyoviy usul.

**Ключевые слова:** гидрогел, натрий-карбоксиметилцеллюлоза, наночастицы, степень замещения, степень полимеризации, оксида цинка, химический метод.

**Keywords:** hydrogel, sodium-carboxymethylcellulose, nanoparticles, degree of substitution, degree of polymerization, zinc oxide, chemical method.

**KIRISH**

So'ngi yillarda nanotexnologiya usullari orqali tarkibida nanoo'lchamli metallar va ularning oksidlari tutgan virus va bakteriyali kasalliklarga qarshi, noyob xossal biologik faol dori vositalari hamda tibbiy buyumlarning yangi avlodlarini sintez qilish dunyo farmatsevtika, tibbiyot va kimyogar olimlarida katta qiziqish uyg'otmoqda [1]. Tarkibida nanozarralar tutgan dori vositalari quyi konsentratsiyalarda ham undagi zarralarning sirt yuzasi yuqori bo'lishi hisobiga grammanfiy va grammusbat shtammlariga qarshi yuqori antibakterial faollikni namoyon etishi adabiyotlardan ma'lum [2,3]. Tibbiyot amaliyotida, antibakterial vosita sifatida qo'llaniladigan Ag, Au,  $TiO_2$ ,  $ZnO$  nanozarralari asosida bir qator preparatlar sintez qilingan va ular virusli hamda bakterial kasalliklarni davolashda keng qo'llanilgan [4]. Jumladan, inson uchun zaruriy mikroelement

## FIZIKA-TEXNIKA

hisoblangan ZnONZ to'qima hujayralariga nisbatan kam toksikligi, kimyoviy barqarorligi, zarra o'lchamlarining boshqarish imkoniyatlarining mavjudligi va yuqori sirt yuzasi hisobiga vaqt davomida antibakterial xossalari namoyon etishi, immun tizimini tiklash xususiyatiga egaligi tufayli tibbiyot amaliyotida keng qo'llanishda istiqbolli natijalar bergen [5]. Antibakterial xossal ZnONZ Amerika Qo'shma Shtatlarining oziq-ovqat va farmatsevtika idorasini tomonidan 21 CFR 182.8991 hujjati asosida xavfsiz deb tan olingen va kosmetika, oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash va farmasevtika sanoatida keng qo'llash uchun tavsiya etilgan [6]. ZnONZ sintez qilishning fizikaviy, kimyoviy, biologik usullari mavjud bo'lib, mazkur usullar asosida olinadigan yakuniy maxsulotning qo'llash sohalariga qarab afzalliklar va kamchiliklarga ega [7]. Amaliyotda rux oksidi kimyoviy usullar orqali ruxning tabiiy birikmalaridan sintez qilib olinadi [8]. Sudheesh Kumar va boshqalar, xitozan gidrogelida o'lchamlari 70–120 nm bo'lgan rux oksidi nanozarralarini sintez qilish orqali bog'lovchi matolar yaratgan va ular qon to'xtatish va yuqori antibakterial xossalarni namoyon etgan [9]. Hashem va boshqalar o'lchamlari 10-20 nm bo'lgan ZnONZ va Na-KMS asosida nanokompozit gidrogellarni sintez qilishga erishgan, natijada olingen Na-KMS /ZnO nanokompozit gidrogellari grammusbat va grammanfiy bakteriya shtammlariga nisbatan yuqori antibakterial faollikni namoyon etgan [10]. Polietilenglikol matritsasida shakllantirilgan ZnO zarra o'lchamining 2-25 nm birlikkacha kichrayishi va sirt yuza sathining ortishi bilan *Escherichia coli* va *Staphylococcus aureus* shtammlariga qarshi yuqori antibakterial faollik hossasini namoyon etgan [11]. Xitozan matritsasida diametri 30-60 nm va uzunligi 80 nm bo'lgan ignasimon shaklli ZnONZ sintez qilingan va olingen nanokompozitlar dastlabki xitozanga nisbatan *Escherichia coli* shtammiga nisbatan yuqori antibakterial faollikni namoyon etgan. Xitozan va ZnONZ asosida olingen nanokompozitlar "amoksitsilin" antibiotigi bilan solishtirilganda yuqori antibakterial faolliga ega ekanligi aniqlangan [12]. Gordon va boshqalar [13], ZnO va FeO asosida polimer tarkibli bakteriyalarga qarshi dori vositasi sintez qilishga erishgan va olingen nanokompozit asosidagi dori vositasi *Staphylococcus aureus* va *Escherichia coli* shtammlariga qarshi yuqori antibakterial faolligi nanozarralarning [Zn]/[Fe] og'irlik nisbatiga bog'liq ekanligini isbotladilar. Adabiyotlarda [14,15], Na-KMS polimer matritsasida ZnONZ sintez qilish imkoniyatlari yo'nalishida keng ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va organizm uchun zararsiz, bioparchalanuvchan, ultrabinafsha nurlaridan himoya qilish xususiyatlariga ega, antibakterial pylonkalar olish imkoniyatlari aniqlangan. Na-KMS, boshqa polimer barqarorlashtiruvchilar bilan solishtirilganda kam toksikligi, biologik parchalanuvchanligi, suvda eruvchanligi va kimyoviy tarkibida organizm uchun yot ta'sir etuvchi element atomlari va radikallarning bo'imasligi, farmatsevtika sanoatida tabletkalar ishlab chiqarishda to'ldiruvchi sifatida qo'llanilishi va gel, pylonka hosil qilish xossalari bilan muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan Na-KMS, oziq-ovqat va farmatsevtikada to'ldirgichlar va barqarorlashtiruvchilar ro'yxatiga kiritilgan [16].


Mazkur ishning maqsadi Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> va Na-KMS orasidagi reaksiya sharoitlarini va Na-KMS eritmasida ZnONZ shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash hamda olingen namunalarning fizik-kimyoviy hossalarini o'rganishdan iborat.

### METODLAR VA MATERIALLAR

ZnONZ sintez qilish uchun polimer matritsa sifatida PD-1000, AD-0.85 bo'lgan tozalangan Na-KMS namunalaridan foydalanildi, qo'shimcha reagent sifatida; distillangan suv (H<sub>2</sub>O, pH-5,4-6,6), natriy gidroksidi (NaOH), rux nitrat kiristalogidrati (Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>·6H<sub>2</sub>O, 99 %) ishlatildi. Zamonaviy asbob uskunalardan, labaratoriya sentrifugasi (Cenlee 20K, Xitoy), mexanik aralashtirgich (OS20-S), magnitli aralashtirgich (MS-H280-Pro), ultratovushli dispersator (UZDN-1, U-4,2, Rossiya), vodorod ko'rsatkichni aniqlash qurilmasi (Digital pH210 Benchtop pH/Mv Meter, Xitoy) dan foydalanildi.

**Tarkibida rux ioni va rux oksidi nanozarralari tutgan Na-KMS gidrogellarini olish metodikasi.** Mazkur ishda tozalangan Na-KMS tuzining AD-0,85 va PD-1000 bo'lgan namunalarining suvli eritmasi va rux oksidi nanozarralarini sintez qilish uchun Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>·6H<sub>2</sub>O tuzining konsentratsiyasi 0,01-0,1 M bo'lgan suvli eritmalaridan foydalanildi. Dastlab tozalangan Na-KMS tuzining 1-3 % li suvli eritmasi tayyorlandi va 8000 ayl/min tezlikda 15 minut davomida sentrifugalash natijasida erigan va gel fraksiyalarga ajratib olindi. Tozalangan Na-KMS tuzining erigan fraksiyasiga (pH=7,25) 25°C haroratda konsentratsiyasi 0,1 M bo'lgan Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> tuzining suvli eritmasidan (pH=4,31) turli hajmda (3-10 ml) tomchilatib qo'shildi va bir

jinsli gidrogel hosil bo'lgunga qadar 25 minut davomida 800 ayl/min tezlikda mexanik aralashtirildi. Olingan Zn<sup>2+</sup>-KMS gidrogeliga konsentratsiyasi 0,1 M bo'lgan NaOH (pH=12,92) ishqorining suvli eritmasidan muxit ko'rsatkichi pH=8 bo'lgunga qadar turli hajmda (0.1-0.5 ml) qo'shildi, va 25°C haroratda 800 ayl/min tezlikda 30 minut davomida mexanik aralashtirildi. Olingan Na-KMS gidrogelida hosil bo'lgan rux gidroksididan rux oksidi nanozarralarini sintez qilish uchun 80 °C haroratda magnitli aralashtirgich ta'sirida eritmadiagi suvning bug'lanishini oldini olish uchun sovitgich o'rnatilgan holda 120 minut vaqt davomida aralashtirildi (1-rasm).





**1-rasm. Labaratoriya sharoitida Na-KMS polimer matritsasida ZnO nanozarralarini sintez qilish jarayoni.**


Olingan Na-KMS gidrogel tarkibida shakillangan ZnONZ o'lchamlarining kichrayishi va polidispersligini ta'minlash uchun UZDN-1, U-4,2 (Rossiya) markali ultratovush dispergatorida 20 minut vaqt davomida ishlov berildi. Taqqoslash uchun rux ionlari bog'langan Na-KMS gidrogellari ham tayyorlandi. Sintez qilingan Na-KMS, Zn<sup>2+</sup>KMS va ZnO/KMS gidrogel namunalaridan plyonkalar olindi va ularda fizik-kimyoiy tadqiqotlar o'tkazildi.

#### OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI.

Tozalangan Na-KMS tuzi suvli eritmalarda Na<sup>+</sup> kationi va KMS<sup>-</sup> anionlariga dissotsiatsiyalanadi, rux nitrat tuzi esa Zn<sup>2+</sup> va NO<sub>3</sub><sup>-</sup> ionlariiga ajraladi. Bu eritmalardan aralashtirilganda Zn<sup>2+</sup> ionlari Na-KMS tuzining karboksil (-CH<sub>2</sub>COO<sup>-</sup>) anionlari bilan bog'lanadi. Rux (II) ionlarining 4s orbitalidagi juftlashgan elektronlar qo'zg'algan holda 4p orbitalning bo'sh yacheykalariga o'tadi va rux ionlari Na-KMS tuzidagi natriy ionlari bilan almashinib karboksil guruhidagi (-COO<sup>-</sup>) kislороднинг 2p orbitalidagi toq elektronlar bilan ionli bog'lanish hosil qiladi. Almashinish reaksiyasi quyidagicha boradi (1-reaksiya).




1-reaksiya. Na-KMS va Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> tuzlari orasidagi reaksiya natijalari



2-reaksiya. Rux hidroksidini hosil bo'lish reaksiyasi.


## FIZIKA-TEXNIKA

Na-KMS tuzining suvli eritmasi 168 - 350 °C harorat oralig'ida qizdirilganda termik parchalanishi adabiyotlardan ma'lum [17]. Na-KMS gidrogeli 80 °C haroratgacha qizdirilganda rux hidroksidi ZnO va suvgi parchalanadi.



### 3-reaksiya. Rux oksidining Na-KMS eritmasida hosil bo'lish reaksiysi.


Na-KMS makromolekulasidagi karboksimetil guruhlari va  $\text{Zn}^{2+}$  ionlari reaksiya natijasida ion kordinatsion bog'lar orqali birikadi va 80 °C haroratgacha qizdirilganda ZnO nanozarralari hosil bo'ladi. Na-KMS gidrogellarida hosil bo'lgan ZnO nanozarralarining o'lchamlarini boshqarish va hosil bo'lgan ZnONZ bir jinsliligini taminlash maqsadida Na-KMS/ZnO sistemasi 20 minut davomida 44 kGs chastotali ultratovush dispergatorida ishlov berildi.



**2-rasm. UT-dispergatori ta'siri Na-KMS/ $\text{Zn}^{2+}$  sistemasidan Na-KMS/ZnO sistemasini shakillantirish mexanizmi.**


Olingen natijalardagi 2-rasmdan ko'rinaldi Na-KMS/ $\text{Zn}^{2+}$  sistemasiga UT-dispergator ta'sir etganda xosil bo'lgan ZnO nanozarralari Na-KMS matritsasidagi (-OH) va ( $\text{ZnO}$ ) o'zaro vodorod bog'larini orqali elektrostatik ta'sirlashishi natijasida barqarorlashadi.

Tozalangan 100 ml 2 % li Na-KMS ning erigan fraksiyasiga 0.1 M li  $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2$  suvli eritmasidan 25°C haroratda 10 ml qo'shilib 25 minut mexanik aralashtirishdan so'ng pH=6.37 qiymatida sinish burchagini hosil qildi (3-rasm(a)). Hosil bo'lgan  $\text{Zn}^{2+}$ -KMS eritmasiga 0.1 M li NaOH ishqorning 13 ml eritmasi bilan 30 minut davomida mexanik aralashtirish ta'sirida titrlaganda eritmaning rangi vaqt davomida oqardi va vodorod ko'rsatkichi pH-8 qiymatgacha ko'tarildi (3-rasm(b)). Eritmaning muhiti pH-8 qiymatgacha ortishi va uning oq ranga kirishi sistemada  $\text{Zn}(\text{OH})_2$  asosining hosil bo'lishidan dalolat beradi. Na-KMS gidrogeli tarkibidagi  $\text{Zn}(\text{OH})_2$  asosdan ZnO nanozarralarini sintez qilish uchun reaksiya 80 °C haroratgacha 2 soat davomida mexanik aralashtirildi, natijada eritmaning muhiti pH=7,45 qiymatgacha tushganligi kuzatildi va sinish burchagiga ega bo'ldi (3-rasm(c)).



a)  $100\text{ ml Na-KMS}$   $10\text{ ml Zn(NO}_3)_2$  qo'shildi,  $25\text{ min aralashdi}$  va  $pH=6,37$  ga tushib  $Zn^{2+}$ KMS hosil bo'ldi.


b)  $Zn^{2+}$ KMS  $13\text{ ml NaOH}$  qo'shildi,  $30\text{ min aralashdi}$  va  $pH=8,02$  ga ko'tarilib  $Zn(OH)_2$  hosil bo'ldi.



c)  $Zn(OH)_2$   $80^\circ\text{C}$  temperaturada  $120\text{ min aralashdirildi}$   $pH=7.45$  ga tushib  $ZnO$  xosil qildi.

### 3-rasm. Na-KMS eritmasida $ZnO$ nanozarralarining shakillanishida sintez vaqtining eritma pH qiymatiga ta'siri.

Eritma tarkibida  $Zn^{2+}$  ionlari bilan Na-KMS makromolekulasidagi karboksimetil guruhlarining bog'lanishini aniqlash maqsadida, Na-KMS,  $Zn^{2+}$ KMS<sup>-</sup> va  $ZnO/KMS$  gidrogelidan pylonkalar tayyorlanib IK-Fure spektroskopik tadqiqotlari olib borildi. Olingan pylonkalar  $400\text{-}4000\text{ sm}^{-1}$  to'lqin uzunligi oralig'ida, infraqizil nurlarning elektronlar oqimini ta'sir ettirish orqali  $ZnO$  nanozarralar tarkibi va pylonkadagi molekulalar tuzilishi aniqlandi (4-rasm). Rasmdan ko'rinish turibdiki, tozalangan Na-KMS makromolekulalaridagi karboksimetil anionining nur yutilish intensivligi  $1602.70\text{ sm}^{-1}$  sohada kuzatildi. Tozalangan Na-KMS makromolekulasidagi natriy ( $Na^+$ ) va rux ( $Zn^{2+}$ ) kationlari o'zaro almashingan qismida nur yutilish intensivligi  $1623.79\text{ sm}^{-1}$  qiymatgacha ko'tarilgan. IK-spektrda  $3445.20\text{ sm}^{-1}$  to'lqin uzunligi ( $-OH$ ) guruhiga tegishli va uning H bilan  $ZnONZ$  ning O atomlari orasida vodorod bog'lari paydo bo'lganligi sababli to'lqin uzunligi  $3449.43\text{ sm}^{-1}$  sohaga o'zgargan.



### 4 - rasm. Tozalangan Na-KMS (a) va tarkibida rux ionlari (c) va rux oksidi nanozarralari (b) tutgan Na-KMS namunalarining IQ – Fure spektr natijalarini.


Olingan natijalardagi 4-rasm(b) chizmadan ko'rinishdiki,  $ZnO/KMS$  pylonkasida  $475.15\text{ sm}^{-1}$  to'lqin uzunligida yangi cho'qqi xosil bo'lgan, adabiyotlarda  $400\text{-}600\text{ sm}^{-1}$  to'lqin uzunliklari oralig'ida  $ZnONZ$  hosil bo'lishi keltirilgan [14] va bu cho'qqi aynan  $ZnONZ$ ga tegishli ekanligini bildiradi. Bundan tashqari rasmida  $827.15\text{ sm}^{-1}$  tebranish soxasida ham yangi cho'qqini ko'rishimiz mumkin bu o'z navbatida  $NO_3^-$  ioniga tegishli ekanligi adabiyotlardan ma'lum. IQ – Fure spektroskopik tadqiqot natijalaridan olingan qiymatlar jadval ko'rinishida keltirilgan (1-jadval).

### 1-jadval. Olingan pylonka natijalarining IQ-Fure spektroskopik natijalarini

## FIZIKA-TEXNIKA

Plyonka namunalari	O-H, sm <sup>-1</sup>	C-H sm <sup>-1</sup>	C=O sm <sup>-1</sup>	CH <sub>2</sub> COO <sup>-</sup> sm <sup>-1</sup>	COOZn <sup>2+</sup> sm <sup>-1</sup>	C-O-C sm <sup>-1</sup>	C-O sm <sup>-1</sup>	NO <sub>3</sub> <sup>-</sup> sm <sup>-1</sup>	Zn-O sm <sup>-1</sup>
Na-KMЦ	3445	2922	1060	<b>1602</b>	-	1328	1271	-	-
Zn <sup>2+</sup> /KMЦ	3446	2923	1060	<b>1623</b>	<b>1385</b>	1328	1270	<b>827</b>	-
ZnO /KMЦ	3449	2923	1060	<b>1623</b>	<b>1385</b>	1327	1270	<b>827</b>	<b>475</b>

Tadqiqotlarning navbatdagi qismida rentgenostrukturaviy tadqiqotlar Cu Ka (1.54059 Å) nurlanishidan foydalangan holda tarkibida ZnO nanozarralari tutgan Na-KMS pylonka namunalarida olib borildi. Dastlabki hisoblashlar tozalangan Na-KMS va ZnO/KMS pylonkalarida olib borilganida  $2\theta = 31.841^\circ, 34.507^\circ, 36.324^\circ, 47.592^\circ, 56.634^\circ, 66.426^\circ, 67.983^\circ, 69.091^\circ, 76.987^\circ$  graduslarda olti burchakli kristallarini hosil qilganligi kuzatilganligini 5-rasmda ko'rishingiz mumkin. ZnO/KMS  $31.841^\circ$  va  $36.324^\circ$  graduslarda intensivligi yuqori bo'lgan defarmatsion tebranishlarni hosil qilib (100) va (102) kristal tekisliklarni namoyon qilgan (5-rasm).




a. Na-KMS. b. ZnO/KMS (Na-KMS :Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> 100:3).  
c. ZnO/KMS (Na-KMS :Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> 100:6).

#### 5-rasm. Tarkibida rux oksidi nanozarralari tutgan Na-KMS pylonkasining rentgenostrukturaviy tahsil natijalari.

Na-KMS pylonkalarida shakllangan ZnO nanozarralarining kristal holatdagi to'lqin tebranishlarining intensivligi,  $2\theta$  nuqtasi va piklar orasidagi masofa *Mathcad* professional programmasi asosida hisoblandi. Kristal tuzilishini aniqlash maqsadida Debay-Sherrer ( $K=0.9$ ) tenglamasidan foydalanildi.

$$D = 0.9\lambda/\beta \cos\theta$$

Na-KMS pylonka matritsasida ZnO nanozarralarining shakli, o'lchami va morfologik holatini aniqlash maqsadida atom kuch mikroskopik tadqiqotlar olib borildi. O'lchovlar atmosfera sharoitida kontaktli rejimda NSG 01 kremniyli kontiliveridan foydalilanilgan holatda o'rganildi. Olingan natijalar 6-rasmda keltirilgan.



Na-KMS pylonkasi

d-Na-KMS: Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>(0.01M 6 ml)/0.00486% ZnO.

d-Na-KMS: Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>(0.01M 2 ml)/0.00162% ZnO.

d-Na-KMS: Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>(0.01M 4 ml)/0.00324% ZnO.

d-Na-KMS: Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>(0.01M 8 ml)/0.00648% ZnO.

d-Na-KMS: Zn(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>(0.01M 10 ml)/0.0081% ZnO.

#### 6-rasm. Tarkibida ZnO nanozarralari tutgan Na-KMS pylonkalarining atom kuch mikroskopik tadqiqot natijalari.

Olingen natijadagi 6-rasmdan ko'rinib turibdiki,  $Zn(NO_3)_2$  eritmaning 0,01 M konsentratsiyali eritmasidan 2-4 ml hajmda qo'shilganda o'lchamlari 10-24 nm bo'lgan sharsimon shakilli rux oksidi nanozarralari hosil bo'lgan (6-rasm(b)). NaKMS eritmasida rux nitratining 0,01 M konsentratsiyali eritmasidan 6-8 ml hajimgacha ortishi bilan o'lchamlari 14-34 nm bo'lgan sharsimon shaklli  $ZnO$  nanozarralari hosil bo'lishi kuzatildi (6-rasm(d)).

Na-KMS eritmasida  $Zn(NO_3)_2$  0,01 M konsentratsiyali eritmalaridan 10 ml hajimgacha ortishi sharsimon shakilli  $ZnO$  nanozarrachalari olti burchakli vursit shaklga o'zgardi va ularning qalinligi 20-45 nm va uzunligi 30-60 nm o'lchamga teng ekanligi aniqlandi (6-rasm(f)).

IQ-Fure spektroskopik tadqiqotlar natijasida Na-KMS va  $Zn(NO_3)_2$  tuzlari ta'sirlashishi natijasida  $Zn^{2+}$ KMS polimermetallokompleksini sintez qilish imkoniyatlari ko'rsatib berildi.

### XULOSA

Tozalangan Na-KMS va  $Zn(NO_3)_2$  tuzlarining eritmalarida ta'sirlanish natijasida ion kordinatsion bog'lanishlar natijasida rux karboksimetilsellyuloza polimermetallokomplekslari birinchi bor sintez qilingan. Birinchi bor Na-KMS eritmalarida kimyoviy usul orqali  $Zn(NO_3)_2$  tuzlaridan  $ZnO$  nanozarrachalarining sintez qilish sharoitlari aniqlandi. Tozalangan Na-KMS eritmalarida tarkibida turli o'lcham va shaklli rux oksidi nanozarralarining sintez qilish imkoniyatlari dastlabki reaksiya sharoitlari va komponentlarining nisbatlariga bog'liqligi aniqlandi.

IQ-Fure, atom kuch mikroskop va rentgenostrukturaviy tadqiqot metodlari orqali turli o'lcham va shaklli rux oksidi nanozarralarining fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi.

Tarkibida  $ZnONZ$  tutgan Na-KMS gidrogellar bioparchalanuvchan antibakterial xossaga ega preparatlar sifatida tibbiyot amaliyotida keng qo'llanilishi mumkin.

**Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022-2023-yillarga mo'ljalangan O'zbekiston-Belorussiya № MRB-2021-548 "Turli funksional maqsadlar uchun organik va noorganik qoplamlari modifikatsiyalangan tolali materiallarni yaratish" halqaro ilmiy loyihasi va O'zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida bajarilayotgan "Organizmada nanozarralarning istiqboli, tibbiyot maqsadlari uchun nanostrukturali polimer shaklli dori vositalari va tibbiy buyumlarni yaratishning fundamental asoslari" (2021-2025-y) mavzusidagi fundamental dasturi doirasida bajarilgan.**

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.S.Chavali, M.P.Nikolova, //Metal oxide nanoparticles and their applications in nanotechnology// Applied Sciences, 1(6) (2019) 4-12. ( Чавали М.С., Николова М.П. //Наночастицы оксидов металлов и их применение в нанотехнологиях// Прикладные науки.)
2. A.Brandelli, A.C.Ritter, F.F.Veras //Antimicrobial Activities of Metal Nanoparticles// Metal Nanoparticles in Pharma, (2017) 337–363. (А.Бранделли, А.К.Риттер, Ф.Ф.Верас // Антимикробная активность металлических наночастиц// Металлические наночастицы в фармацевтике.)
3. S.Sharmin, M.M.Rahaman, C.Sarkar, O.Atolani, M.T.Islam, O.S.Adeyemi, //Nanoparticles as antimicrobial and antiviral agents: A literature-based perspective study// Heliyon, 7(3) (2021) 6-23.(1. Шармин С., Рахаман М.М., Саркар К., Атолани О., Ислам М.Т., Адэйеми О.С. // Наночастицы как антимикробные и противовирусные агенты: перспективное исследование на основе литературы.
4. Y.N.Slatin, J.Asnis, U.O.Häfeli, H.Bach, //Metal nanoparticles: understanding the mechanisms behind antibacterial activity// Journal of Nanobiotechnology, 15(1) (2017).1-20.(\_1. Славин Ю.Н., Аснис Дж., Хафели У.О., Бах Х. //Металлические наночастицы: понимание механизмов антибактериальной активности// Журнал нанобиотехнологий).
5. A.Sirelkhatim, S.Mahmud, A.Seeni, N. H.M.Kaus, L.C.Ann, S.K.Bakhori, M. D.Mohamad, // Review on Zinc Oxide Nanoparticles: Antibacterial Activity and Toxicity Mechanism// Nano-Micro Letters, 7(3), (2015) 219–242. (1. А.Сирельхатим, С.Махмуд, А.Сеени, Н.Х.М.Каус, Л.К.Энн, С.К.Бахори, М.Д.Мохамад, Обзор наночастиц оксида цинка: антибактериальная активность и механизм токсичности Нано-микро письма).
6. P.J.P. Espitia, N.D.F.F. Soares, J.S. Dos Reis Coimbra, N.J. De Andrade, R.S. Cruz, E.A.A. Medeiros, //Zinc oxide nanoparticles: synthesis, antimicrobial activity and food packaging applications// Food Bioprocess. Tech, 5 (2012) 1447-1464.(\_1. П.Дж.П. Эспития, Н.Д.Ф. Соареш, Дж.С. Дос Рейс Коимбра, Нью-Джерси Де Андраде, Р.С. Круз, Э.А.А. Медейрос, Наночастицы оксида цинка: синтез, антимикробная активность и применение в пищевой упаковке Food Bioprocess. Технология).
7. A.Naveed, A.Nadhaman, I.Ullah, // Synthesis Approaches of Zinc Oxide Nanoparticles: The Dilemma of Ecotoxicity// Review Article, (2017) 1-14.(А.Навид, А.Надман, И.Улла, Подходы к синтезу наночастиц оксида цинка диллемма экотоксичности Обзорная статья).
8. V.Manoj, M.Karthika, V.S.R.Praveen //Synthesis of  $ZnO$  nanoparticles using Carboxymethyl Cellulose hydrogel, // Science Alert, (2014) 798-803. ( Маной В., Картика М., Правин В.С.Р. Синтез наночастиц  $ZnO$  с использованием гидрогеля карбоксиметилцеллюлозы).

## FIZIKA-TEXNIKA

9. P. Sudheesh Kumar, V.K. Lakshmanan, T.V. Anilkumar, C. Ramya, P. Reshma, A.G. Unnikrishnan, R. Jayakumar, Flexible and microporous chitosan hydrogel nano ZnO composite bandages for wound dressing: in vitro and in vivo evaluation Mater Inter, 4 (2012) 2618-2629. ( П. Судхиш Кумар, В.К. Лакшманан, Т.В. Анилкумар, К. Рамья, П. Решми, А.Г. Унникришнан, Р. Джаякумар, Гибкие и микропористые композитные повязки из хитозан-гидрогеля нано-ZnO для перевязки ран: оценка in vitro и in vivo Mater Inter).
10. M.Hashem, S.Sharaf, M.M.Abdel-Hady, A. Hebeish, //Synthesis and characterization of novel carboxymethylcellulose hydrogels and carboxymethylcellulose-hydrogel-ZnO-nanocomposites// Carbohyd. Polym, 95 (2013) 1-28. ( М.Хашем, С.Шараф, М.М.Абдель-Хади, А. Хебейш, Синтез и характеристика новых гидрогелей карбоксиметилцеллюлозы и карбоксиметилцеллюлоза-гидрогель-ЗnO-нанокомпозитов Углевод.)
11. R.Brayner, Ferrari-Iliou, N.Brivois, S.Djediat, M.F.Benedetti, F.Fiévet.//Toxicological.
12. Impact Studies Based on Escherichia coli Bacteria in Ultrafine ZnO Nanoparticles Colloidal// Medium. Nano Letters, 6(4) (2006) 866-870 (Р.Брайнер, Феррари-Илиоу, Н.Бривуа, С.Джедиа, М.Ф.Бенедетти, Ф.Фьеве. Токсикологический.
13. Исследования воздействия на бактерии Escherichia coli в коллоидных ультрадисперсных наночастицах).
14. P.Bhadra, M. K. Mitra, G. C.Das, R.Dey, S. Mukherjee, //Interaction of chitosan capped ZnO nanorods with Escherichia coli// Materials Science and Engineering, 31(5) (2016) 929-937.( П. Бхадра, М. К. Митра, Г. К. Дас, Р. Дей, С. Мукерджи, Взаимодействие покрытых хитозаном наностержней ZnO с Escherichia coli Материаловедение и инженерия).
15. Gordon, T., Perlstein, B., Houbara, O., Felner, I., Banin, E., & Margel, S. //Synthesis and characterization of zinc iron oxide composite nanoparticles and their antibacterial properties Colloids and Surfaces A: Physicochemical and Engineering Aspects, 374 (1–3) (2011) 1–8. (Гордон Т., Перлштейн Б., Хубара О., Фельнер И., Банин Э. и Маргель С. Синтез и характеристика композитных наночастиц цинка оксида железа и их антибактериальные свойства Коллоиды и поверхности физико-химические и технические аспекты)
16. R.Priyadarshi, B.Kumar, J.W.Rhim, Green and facile synthesis of carboxymethylcellulose ZnO nanocomposite hydrogels crosslinked with Zn<sup>2+</sup> ions International Journal of Biological Macromolecules, (2020) 1-25.(Р.Приядарши, Б.Кумар, Дж.В.Рим, Зеленый и легкий синтез нанокомпозитных гидрогелей карбоксиметилцеллюлоза ZnO, скрепленных ионами Zn<sup>2+</sup> Международный журнал биологических макромолекул)
17. L.Upadhyaya, J.Singh, V.Agarwal, A. C.Pandey, S.P.Verma, P.Das, R.P.Tewari, //In situ grafted nanostructured ZnO/carboxymethyl cellulose nanocomposites for efficient delivery of curcumin to cancer// Journal of Polymer Research, 21(9) (2014) 1-9.(Л.Упадхьяя, Дж.Сингх, В.Агарвал, А.С.Пандей, С.П.Верма, П.Дас, Р.П.Тевари, Привитые in situ наноструктурированные нанокомпозиты ZnO карбоксиметилцеллюлоза для эффективной доставки куркумина к раку Journal of Polymer Исследование)
18. M. Yadollahi, H. Namazi, //Synthesis and characterization of carboxymethyl cellulose layered double hydroxide nanocomposites J. Nanopart. Res. 15 (2013) 1-9.(\_1. Ядоллахи М., Намази Х. //Синтез и характеристика карбоксиметилцеллюлозы слоистых двойных гидроксидных нанокомпозитов)
19. M.Akram, I.Taha, M.M.Ghobashy. // Low temperature pyrolysis of carboxymethylcellulose// Cellulose, 23(3) (2016) 1713-1724. (М.Акрам, И.Таха, М.М.Гобаши Низкотемпературный пиролиз карбоксиметилцеллюлозы Целлюлоза)